

O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Ramonova Sadoqat Komilovna

p.f.f.d (PhD), dotsent

Chirchiq oliv tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

sadokatkomilovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o'qitishning psixologik-pedagogik sharoitlari, o'qitishga qo'yilgan didaktik talablar va uning nazariy asoslari hamda elektrotexnika va elektronika asoslarini fanlarini o'qitishning zamonoviy shakllari va o'qitish metodikasi qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: psixologik-pedagogik sharoitlar, omil, didaktik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, NI Multisim dasturi, tugun, elektr zanjiri, manba.

Ta'limga innovatsion o'zgarishlar, jumladan oliv harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining innovatsion strategiyasini, ta'limning mazmunini loyihalashtirish, ko'p variantli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, hamda muxandislik kasbiy ta'limining metodik ta'minoti boyitishning ilmiy asosini ishlab chiqishni taqoza etadi.

O'qitish didaktikasi asosiy muammolari bu o'qitish qonunyatlarini ochish, ta'lim mazmunini oydinlashtirish, o'qitishning eng samarali metodlarini ishlab chiqish va o'qitishni tashkil etishdir[1]. Ta'lim jarayonida ta'limga oid bo'lgan texnologiyalardan unumli foydalanish, talabalarga bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining tashkil etilishi talabalarda bilishning kognitiv va kreativ sifatlari, izlanuvchanlik qobiliyati, axborot madaniyatini shallantirish, o'quv faoliyatiga oid tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarni rivojlantirish masalalari tadqiqot ishlarida o'rganilgan[2-3].

O‘quv-metodik adabiyotlarda o‘qitish metodikasi uchta savolga javob topish vazifasini qo‘yadi: u nima uchun o‘rgatadi (ta’lim maqsadi), nimani o‘rgatadi (ta’lim mazmuni) va qanday o‘rgatadi (ta’lim shakllari va usullari) [4].

Bugungi kunda elektrotexnika va elektronika asoslari fanlarini o‘qitish mazkur yo‘nalishda kompetent kadrlarni tayyorlash muammosiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar mavjudligi o‘rganildi. Bular: *birinchidan* ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika fanlari o‘qitilayotgan ananaviy o‘qitish metodikasi bugungi zamonaviy sharoitda yaxshi samara bermayapti; *ikkinchidan* oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika fanlari o‘quv rejada auditoriya dars soatlari hajmi kam ajratilgan (1-jadval).

1-жадвал

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda rejalashtirilgan soatlar kesimida

/r	Ta’lim yo‘nalishi nomi va shifri	Umumiyluklamaning Jami	Ma’ruza	Amaliy laboratoriya	Mustaqil ta’lim
----	----------------------------------	------------------------	---------	---------------------	-----------------

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi

.	710000 – Qorovul xizmatining texnik qo‘riqlash vositalari	180 4	11 4	36	58	20	66
.	710000 – Umumqo‘shin fakulteti (moo‘qchi va chegara bo‘linmalarini taktik qo‘mondonligi yo‘nalishlaridan boshqa) barcha yo‘nalishlar uchun	90	54	14	30	10	36


Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

.	710000 – barcha yo‘nalishlarga (Zenit raket qo‘shinlari taktik qo‘mondonligi yo‘nalishlaridan boshqa)	90	54	14	30	10	36
---	---	----	----	----	----	----	----

O‘quv fanlarini, jumladan elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda elektron axborot muhitdan o‘qitishning didaktik tamoyillariga mos elektron dasturlari tanlash muhim sanaladi. Talabalarda dasturiy ta’minotlar bilan

ishlash jarayoni psixolog – pedagoglar tomonidan o‘rganilganda, eng muvaffaqiytli dasturiy mahsulot ham talaba uchun yangilik elementi mavjud bo‘lganga qadar qiziqish o‘yg‘otar ekan. Bunday aloqani ta’minlash uchun o‘qituvchi umum uslubiy talablarni bajarishi kerak: talabalarga qo‘yilayotgan vazifa ularning shaxsiy vazifasiga aylanishi uchun tushuntirish; talabalarining ta’lim vafan asoslariga qiqiqtirish uchun motivlar berish; talaba bilan vazifani, muammolarni hal etish usullarini muhokama qilish, mavzuga oid qo‘yilgan g‘oyalarni tajriba asosida tekshirish yo‘llarini ishlab chiqish; zarur hollarda talabalarining e’tiborini asosiy ob’ektlarga qaratish; zaruryat bo‘lganda muammoga oid qo‘shimcha muamolarni qo‘yish hamda ularni muhokama qilish lozim bo‘ladi.

Oliy harbiy bilim yurtlari kursantlariga elekrotexnika o‘qitishda AKTdan foydalanishni amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish misolida qarab chiqamiz. Elekrrotexnikada eng ko‘p qo‘llaniladigan “Tugun potensiallar usuli” mavzusi misolida qarab chiqamiz. Ushbu usul tugunlar potensiallarini Kirxgofning bininchi qoidasi asosida aniqlashga va shaxobchalardagi toklar qiymatini esa Om qonuni asosida aniqlashga bag‘ishlanadi. Bu usulda tenglamalar soni Kirxgofning bininchi qoidasi tenglamalari sonigacha kamaytirish imkonini beradi [6]. 1 - rasmda ko‘rsatilgan mustaqil manbali o‘zgarmas tok zanjirda kontur toklarini va shaxobcha toklarini aniqlang?



1 -rasm. Mustaqil manbali o‘zgarmas tok zanjiri

Tugun potensiallar usuli bo‘yicha hisoblash tartibi

1. Sxemadagi biron bir tugun potensiali nolga teng deb olinadi.

2. Noma'lum bo'lgan tugunlar uchun tugunlar tenglamalari yozib chiqiladi.


3. Tenglamalar tizimi yechiladi va noma'lum tugunlar potensiali aniqlanadi.

4. Shoxobchalarda toklar yo'nalihi aniqlanadi va Om qonuniga asosan ular qiymatlari aniqlanadi.

5. Agar sxemada qarshiliksiz EYUK manbasi bo'lsa, u holda shu manba ulangan boshqa shoxobcha tugunini nolga teng deb olinadi va boshqa shoxobcha tugunlari hisoblanadi hmda bu shoxobcha uchun tenglama tuzilmaydi

Amaliyot yakunida kursantlar NI Multisim dasturi asosida erishgan natijalarini o'zaro muhokama qilishadi. Pedagog tamonidan esa o'qitishning didaktik tamoyillari ko'ra olingan amaliy mashg'ulot natijalari (hisoblanilgan kattaliklarning son qiymatlari, olingan natjalarning ishonchligi, topshiriqni bajarish uchun ketgan vaqt sarfi) baholanadi.

Amaliy mashg'ulotda maqsadga samarali erishishda NI Multisim dasturidan foydalanamiz (2-rasm).



2-rasm. Mustaqil manbali o'zgarmas tok konturini NI Multisim dasturida yig'ish.

Xulosa qilib aytganda pedagog va kursant o'rtaсидаги hamkorlik tamoyili o'qitishning didaktik maqsadlari(elektron dasturlarni o'rganish va ulardan foydalana olish, natjalarni olish va ularni qayta ishslash) ni samarali amalgashida muhim sanaladi. Shu bois kursantlar tomonidan elektrotexnika va

elektronika asoslarini AKT dasturlari asosida hamda kompyuter vositalari yordamida elektr zanjirlarini loyiha ishlarini bajarish, ularda zamonaviy elektron qurilmalarning ishlash tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilganabiyotlar

1. Джораев М. Физика ўқитиш методикаси. – Тошкент, «Abu matbuot-konsalt», 2015. – 280 б.
2. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Инновацион таълим технологиялари . – Тошкент, ТДПУ, 2015. – 208 б.
3. Суяров.К.Т. Ўқувчиларда ўқув-тадқиқотчилик кўнижмаларини шакллантириш жараёнига таъсир кўрсатувчи омиллар ва педагогик шартшароитлар// Халқ таълими. – Ташкент, 2020. – 3-сон. – Б.16-21.
4. Филимонова О.В., Шимаров А.И. Методика преподавания электротехнических дисциплин. – Самара, СГТУ, 2017. – 194с.
5. Ramonova S.K. Elektrotexnika va elektronika asoslari. Darslik. Chirchiq OTQMBY, 2022. 300–bet